


Toshkent viloyatida qurilish - pudrat ishlari umumiy hajmi


2018 YIL YANVAR - DEKABR UCHUN

2018 yilning yanvar – dekabr oyi davomida Toshkent viloyatida bajarilgan qurilish pudrat ishlari hajmi 2543.2 mlrd. so‘m miqdorida baholandi va mos ravishda o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 110.1 foizni tashkil etdi.






Hududlar kesimida qurilish-pudrat ishlari hajmi 2018 yil yanvar-dekabr uchun (mlrd. so'm)




Viloyat bo'yicha tuman va shaharlar kesimida Zangiota tumanida 294,5 mlrd. so'mlik, Qibray tumani 286,4 mlrd. so'mlik, Yuqorichirchiq tumani 256,0 mlrd. so'mlik, Olmaliq shahar 216,0 mlrd. so'mlik qurilish – pudrat ishlari amalga oshirilib eng yaxshi ko'rsatkichlarga erishildi.



Viloyat bo'yicha tuman va shaharlar kesimida o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichlarga Olmaliq shahar 163,4 foizga, Toshkent tumani 145,7 foizga, Chirchiq shahar 109,2 foizga, Yangiyo'l shahar 109,0 foizga, Yuqorichirchiq tumani 108,2 foizga erishdi.




Qurilish – pudrat ishlar xajmi sektorlar bo‘yicha





1. Yirik korxonalar tomonidan;

Toshkent viloyatida yanvar - dekabr oyi davomida yirik qurilish pudratchi korxonalar tomonidan 597,0 mlrd. soʻmlik qurilish – pudrat ishlari bajarilib, oʻtgan yilga nisbatan 131,9 foizni jami qurilish – pudrat ishlar hajmidagi ulushi 23,5 foizni tashkil qildi. Bundan koʻrinib turibdiki yirik qurilish korxonalari tomonidan qurilish ishlar xajmi oʻtgan yilga nisbatan 31,9 punktga koʻpayishi viloyatning umumiy qurilish ishlari xajmida oʻzining ijobiy taʼsirini koʻrsatdi.




2. Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha;

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarda oʻtkazilgan monitoring kuzatuv natijalariga koʻra ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2018 yil yanvar – dekabr oylarida 884,4 mlrd. soʻmga yaqin miqdorida baholandi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 103,4 foizni jami qurilish – pudrat ishlar hajmidagi ulushi esa 34,8 foizni tashkil etdi.



3. Qurilish pudrat ishlar hajmi jami norasmiy sektor bo'yicha:

2018 yilning yanvar – dekabr oylari davomida jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan qurilish – pudrat ishlari hajmi 1061,8 mlrd. so'm miqdorida baholandi va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 foizni, jami qurilish – pudrat ishlar hajmidagi ulushi esa 41,7 foizni tashkil etdi.



2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha qurilish pudrat ishlari hajmi

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so'm	2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, %da	ming.so'm	2017 yil yanvar-dekabrga nisbatan % da
Toshkent viloyati	2 543,2	110,1	100,0	883,1	108,8
<i>shaharlar:</i>					
Nurafshon	36,2	104,7	1,4	753,2	103,6
—					


	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so'm	2017 yil yanvar-dekabr ga nisbatan % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, % da	ming.so'm	2017 yil yanvar-dekabr ga nisbatan % da
Olmalik	216,0	163,4	8,5	1683,5	161,3
Angren	67,0	104,3	2,6	362,6	102,9
Bekobod	173,3	101,7	6,8	1852,1	100,4
Ohangaron	36,9	104,5	1,5	1006,2	103,7
Chirchiq	90,2	109,2	3,5	580,9	108,5
Yangiyo'l	32,0	109,0	1,3	538,1	108,4
<i>tumanlar:</i>					
Oqqo'rg'on	84,1	105,2	3,3	819,2	103,9
Ohangaron	64,9	103,3	2,6	693,5	102
Bekobod	88,8	104,4	3,5	577,9	103
Bo'stonliq	130,5	103,4	5,1	784,5	102,5
Bo'ka	36,0	101,5	1,4	293,7	100,1
Zangiota	294,5	106,5	11,6	1517,8	105,5
Qibray	286,4	102,2	11,3	1458,3	100,9
Quyichirchiq	32,0	106,2	1,3	303,0	105
Parkent	73,4	106,4	2,9	487,2	104,7
Piskent	41,3	103,0	1,6	418,4	101,9
O'rtachirchiq	111,8	101,5	4,4	767,6	99,9
Chinoz	71,6	104,0	2,8	548,5	102,7
Yuqorichirchiq	256,0	108,2	10,1	1939,5	106,6
Yangiyo'l	143,8	104,0	5,7	701,1	102,4
Toshkent	176,5	145,7	6,9	999,8	144,2

Hududlar o'rtasida eng yuqori o'sish sur'atlari Olmaliq shaxar (163,4 %), Toshkent (145,7 %), Chirchiq shaxar(109,2 %), Yuqorichirchiq (108,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng past o'sish sur'atlari esa Bo'ka (101,5%) O'rtachirchiq (101,5%) tumanlariga to'g'ri keladi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan qurilish pudrat ishlari hajmi 883,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,8 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng yuqori qurilish pudrat ishlari ulushi Yuqorichirchiq tumanida – 1939,5 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,6% tashkil etdi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng kichik qurilish pudrat ishlari ulushi Bo'ka tumanida 293,7 ming so'mni o'sish, sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (100,1 %), tashkil etdi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, % da



Viloyatda eng katta ulush Zangiota (11,6 %) Qibray (11,3 %) Yuqorichirchiq (10,1 %) va Olmaliq (8,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Viloyatda eng past ulush esa Yangiyo'l tumani (1,3 %), Quyichirchiq tumani (1,3 %) tumanlarida kuzatildi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida
jami Qurilish pudrat ishlarida kichik biznesning ulushi, %**



*Investitsiya va qurilish
statistika bo'limi
boshlig'i o'rinbosari
B. Djavliev Tel;230-86-70, 71*